

**O'ktamova Jasmina Muzaffar qizi**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy til va adabiyot*

*yo'nalishi 3-23 guruh talabasi*

*[jmuzaffarovna@gmail.com](mailto:jmuzaffarovna@gmail.com)*

**O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li**

*Shahrisabz davlat Pedagogika Instituti "Matematika va ta'limda*

*axborot texnologiyasi" kafedrasи o'qituvchisi*

*[oktamovm03@mail.ru](mailto:oktamovm03@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XXI asrda ingliz tilini o'qitishning zamonaviy va innovatsion usullari, metodlari haqida batafsil malumotlar berilgan. Maqolada maktablarda o'quvchilardagi til o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolarni aniqlab ularga yechim topish, ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar va innovatsion usullar haqida yozilgan. Ushbu metodikalar, innovatsion usullar va axborot texnologiyalari ingliz tilini o'qitishni sezilarli darajada boyitadi.

**Kalit so'zlar:** H.Palmer metodikasi, Spelling bee, Creative Problem Solving, Thinkers meeting, Merry Riddles, When pictures speak, O'quvchi va uning tevarak-atrofi metodika mezonlari.

**Abstract:** This article provides detailed information about modern and innovative methods and techniques of teaching English in the 21st century. The article describes methods and innovative techniques aimed at identifying and solving some of the problems associated with language learning in schools, as well as developing their language skills. These methods, innovative methods and information technologies significantly enrich the teaching of English.

**Keywords:** H. Palmer methodology, Spelling bee, Creative Problem Solving, Thinkers meeting, Merry Riddles, When pictures speak, The student and his environment methodological criteria.

**Аннотация:** В статье представлена подробная информация о современных и инновационных методах и методиках преподавания английского языка в 21 веке. В статье описываются методы и инновационные подходы, направленные на выявление и решение некоторых проблем, связанных с изучением языка среди учащихся школ, а также на развитие их языковых навыков. Эти методики, инновационные методы и информационные технологии значительно обогащают преподавание английского языка.

**Ключевые слова:** Методология Г. Палмера, Конкурс на знание орфографии, Творческое решение проблем, Встреча мыслителей, Веселые загадки, Когда говорят картинки, Ученик и его окружение. Методологические критерии.

**Kirish:** Malumki, XXI asr rivojlanish, taraqqiyot va innovatsion texnologiyalar asri. Hozirda har bir sohada innovatsion texnologiyalardan va zamonaviy ilm-fan vositalaridan

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

foydalanib kelinmoqda. Shu sababli, maktablarda ham o'quvchilarning ingliz tilini chuqur o'rganishlari va ularning til ko'nikmalarini oshirish uchun zamonaviy va innovatsion vositalardan, metodlardan, sinflar tizimida turli xil interaktiv o'yin va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish zarur.

O'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi chet tillarni o'qitish jarayonida talim mazmuni va metodlarini ehtiyojlar asosida takomillashtirilishi bilan uzviy bog'liqdir. Chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy jihatdan o'rgatishdir. Professor, amaliy tilshunos olim Azamat Akbarovning ta'kidlashicha, chet tilini o'rganish «yaxshi taassurot qoldiradigan» tarjimai holga ega bolish yoki sayohat qilishda qol keladigan vositadan ham jiddiyroq ahamiyatga ega. U o'quvchilarni aqlliqoq, tez qarorga keluvchi insonga aylantiradi va hatto suhbat olib borish qobiliyatlarini ham oshiradi.

Psixologik tadqiqotlar ham chet tillarini o'rganish va so'zlashish afzalliklarini namoyon etmoqda. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi uchun sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodiy qobiliyatini namoyish etish imkonini beradigan o'qitish usullarini tanlashdir.

XXI asrda zamonaviy ingliz tilini o'qitishning asosiy vazifasi nafaqat keng malumot berish, balki o'sib borayotgan o'quvchining bilimini mustaqil ravishda egallashi, bilim sohasida doimo chuqurlashishga intilishi va ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini, ishtiyoqini oshirish maqsadida maktablarda o'quvchilarga zamonaviy metodikalar, yangi axborot texnologiyalardan va internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishdir.

Nutq aloqa vositasi ekan, uni o'rganish talimning umumiyligi amaliy maqsadiga kiradi. Biroq, bugungi kunda maktab o'quvchilarida chet tillarini o'rganishda nutq bilan bog'liq muammo bor. Bu holatga professor Azamat Akbarov shunday fikr bildiradi: Afsuski, bugungi kunda qo'llanayotgan ba'zi til o'rgatish metodlari o'quvchilarning vaqtini behuda sarflaydigan mashgulotlar, xolos. Til o'qituvchilari chet tilini o'rgatishda adabiyotni o'qish va grammatik qoidalarni batafsil tahlil qilishga emas, balki ko'proq suhbatlashish ko'nikma va malakalariga alohida e'tibor berishlarini xohlar edim. Bunday darslarda o'qish va yozishga asosiy e'tibor qaratiladi, so'zlashuv va tinglab tushunishga juda kam yoki umuman izchil e'tibor berilmaydi. O'quvchi tilni o'rganishni boshlagan vaqtidan muttasil so'zlashishi juda muhim. Demak, maktab o'quvchilariga dars mobaynida faqat yangi malumotlar berish, o'quv darsliklaridagi yozma mashqlarni bajartirish, doimiy ravishda qoidalarni lug'atlar yodlatish ularning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirib qo'yish bilan bir qatorda ularning nutq bilan bog'liq muammolarining kelib chiqishiga ham sababchi bo'lishi mumkin. Ruhshunoslar va talimshunoslar etirof etishlaricha, o'quvchilarga ta'lif jarayonida yetarli miqdorda qiyinchiliklarni yengib borish o'rgatilsagina, ularning tafakkurini tezkorlik bilan rivojlantira olish mumkin. Shu sababli, o'quvchilardagi nutq bilan bog'liq muammolarni hal qilish maqsadida nutqiy rivojlantirishga asoslangan metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maktablarda o'quvchilarning til ko'nikmalarini oshirishi va

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ulardagi muammolarni bartaraf qilish uchun Harold Palmer metodidan foydalanish tafsiya qilinadi. Ushbu metodning maqsadi ingliz tilini erkin egallash, ya’ni nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv malakalarini egallash nazarda tutiladi.

**H.Palmer metodida o‘qituvchilarga o‘quvchilar og‘zaki nutqni egallashlari uchun ular bilan birga quyidagi masalalarni inobatga olgan holda ishlash tafsiya etiladi:**

1. Til qiyinchiliklarini tasnif etish (talaffuz, imloviy, etimologik, semantik,sintaktik qiyinchiliklar).
2. Og‘zaki nutqni ikki yo‘nalishda o‘rgatish: tinglab tushunish va gapirish.
3. Passiv til boyligini shakllantirish, so‘ngra uni reproduktiv nutqda faol qo‘llash.
4. So‘zlarning manosini ochishda ko‘rgazmalilik, tarjima, chet tilda izohlash,matn mazmunidan foydalanish.
5. Nutqiy parchalarni yodlab o‘zlashtirish.
6. So‘zlarni muayyan mezonlarga binoan tanlash.
7. Mavzularga oid matnlarni tanlash, lug‘at-minimum tuzish va o‘qish turlarini aniqlash.

Muammolarni bartaraf etib, yuqori natijalarga erishishda, albatta, til o‘rganishdagi qiyinchiliklarni aniqlab olish yaxshi natija beradi. O‘quvchilarda nutqni rivojlantirish uchun maktab dasturiga mavzular kiritilishida o‘quvchi va uning tevarak-atrofi metodika mezonlariga suyanib ish ko‘riliishi lozim. Soddarq qilib aytganda, o‘quvchi, avvalambor, o‘zi haqida, o‘ziga yaqin kimsalar va narsalar haqida ingliz tilida (do‘satlari, muallim, oila azolari va sinfi, maktab, uyiga oid) fikr bayon etishi, soniyan, uzoqroq masofa haqida (qishlog‘i yoki shahriga oid) fikr yurita olishi va, nihoyat, o‘z Vatani va tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar) haqida axborot bera olishi talab qilinadi. Ushbu mavzularning metodik tasnifi 3ta yirik nomni tashkil etadi: O‘quvchi tevarak-atrofi, Vatanimiz, Tili o‘rganilayotgan mamlakat. Maktablarda shu kabi mavzularga tayangan holda o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

**Zamonaviy jamiyatning o‘zgaruvchan voqeliklari va uning faol rivojlanishi sharoitida ingliz tilini o‘qitishda o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalanish lozim.**

Bugungi kunda maktablarda ingliz tili o‘qituvchilari AQSH, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion usullardan foydalanishlari tafsiya qilinadi:

- Muammoli vaziyat yechimi (Creative Problem Solving) usulini qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladi va uning qanday yakun topishi o‘quvchilar hukmiga havola qilinadi;
- Quvnoq topishmoqlar (Merry Riddles). O‘quvchilarga topishmoqlar o‘rgatish ingliz tilini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlarni o‘rganadilar va o‘ylab topishmoq javobini topadilar;

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

— Rasmlar so‘zlaganda (When pictures speak) usuli ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

— Allomalar yig‘ini (Thinkers meeting) usulini qo‘llash jarayonida o‘quvchilar o‘zlaru xohlagan allomalar, shoir va yozuvchilardan birini tanlab ularning hikmatli so‘zlaridan aytib berishadi. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so‘zlardan darslarda foydalanish o‘quvchi-yoshlarni komil inson bo‘lib tarbiyalanishlariga yordam beradi.

— S‘zlarni to‘g‘ri harflab aytish (Spelling bee) usulini qo‘llash uchun o‘quvchilar o‘zлari yod olgan lug‘atlardagi har bir so‘zlarni to‘g‘ri harflab aytishlari kerak bo‘ladi.

Bu usul o‘quvchilarning gapishtirish va yozish ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi

Yuqorida aytib o‘tilgan har bir innovatsion usullar o‘ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining talim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi.

Ingliz tilini ‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari va faoliyklarining oshishiga sababchi bo‘ladi. O‘qituvchi dars mobaynida o‘quvchilarning sinf tizimidan kelib chiqqan holda ularga ingliz tilidagi, davomiyligi 3 yoki 5 daqiqa blgan qiziqarli va tarbiyaviy ruhdagi videoroliklar qo‘yib berishi lozim. Ushbu videorolikkarning davomiyligi uzoq bo‘lsa, ayrim o‘quvchilarni zeriktirib qo‘yishi yoki ular bazi so‘zlarga tushunmay qolishi mumkin. Shu sababli videorolikkarning davomiyligi qisqa bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Darsda o‘quvchilarga videoroliklar qo‘yib berish orqali ularning diqqatini tilni o‘rganishga jalb qilish mumkin. Yangi mavzularni, malumotlarni, grammatik qoidalarni, qiziqarli malumotlarni, sher, lug‘at yoki tarixiy va mashhur shaxslar haqida videoroliklar qo‘yib berish orqali har tomonlama samarali natijalarga erishish mumkin. Jumladan, o‘quvchilarda tinglash, tinglab tushunish, ko‘rib yodda saqlash, gapishtirish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, XXI asrda davrning o‘zi yangiliklarni, yangilanishni talab qilayotgan ekan, o‘sib kelayotgan yosh avlodga yangi, zamonaviy usullar orqali dars o‘tish ham davrning bir talabidir, desak adashmagan bo‘lamiz. O‘quvchi-yoshlar kelajakda yetuk kadr bo‘lib yetishishlari uchun ularga hozirdanoq ilmiy, manaviy-marifiy va psixologik jihatdan yordam berib ularni qo‘llab-quvvatlash lozim.

Maktab o‘quvchilarining til ko‘nikmalarini hozirdanoq rivojlantirish kelgusida juda katta muvaffaqiyatli natijalar beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan metodikalar, innovatsion usullar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularni tilni o‘rganishga jalb qila olish, ulardagи yuzaga kelgan qiyinchiliklarni hal qila olish, fikrlash, o‘z istedodlarini namoyon qila olish va ularning o‘qish, gapishtirish, tinglab tushunish va yozuv kabi ko‘nikmalarini rivojlantirib, katta natijarga erishish uchun yordam beradi. Innovatsion usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi,

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Shu o‘rinda aytish lozimki, o‘qitishda metodikalar, innovatsion usullarni qo‘llashdan tashqari axborot texnologiyalarining joriy etilishi axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonini sezilarli darajada diversifikatsiya qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLA:**

1. J.Jalolov Chet tili o‘qitish metodikasi Toshkent 2012.
2. Bekmuratova U. B. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish mavzusida.
3. Bakhridinova, D. (2020). EUPHEMISMS ABOUT GETTING FIRED IN ENGLISH AND UZBEK. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(1), 30-34.
4. Baymatov, A., & Bakhridinova, D. (2020). EVFEMIZM—NUTQ VOSITASI SIFATIDA. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Bakhridinova Dildora Oktamovna. The etymological gradual development of euphemisms . ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year:2020, Volume: 10, Issue:10. First page : ( 578) Last page : ( 583). Online ISSN: 2249-7137

